

Bosh miya qon aylanishining buzilishiga olib keluvchi xavfl omillar

D.Y.Batirov, A.P.Rahimov, Tajihev S.Z, X.A.Madrimov

Umumiy xirurgiya yo‘nalishi magistranti.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali – O‘zbekiston, Urganch.

Mavzuning dolzarbligi: Bosh miyada qon aylanishining buzilishi (BMQAB) bilan kechadigan kasalliklar zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Jahan sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga qaraganda, bu kasallik barcha mamlakatlarda juda keng tarqagan. Xalqaro multimarkazlar va O‘zbekiston bosh nevropotolog G‘ofurov B.G tamonidan taqdim qilingan ma’lumotlarga qaraganda gemaragik va ishemik turdag'i BMQAB nisbati o‘rtacha 4.8 : 1.2 nisbatta ekanligini tasqidlaydi. BMQAB ishemik tipining yomon asoratlari nogironlik (80%) hisoblanadi. O‘tkir davrida esa o‘lim ko‘rsatgichi 29% ni tashkil qiladi va birinchi yil oxiriga kelib bu ko‘rsatgich 59% ni tashkil qiladi. Omon qolgan bemorlarning birinchi yili davomida takroriy BMQAB kuzatilishi 5-25%, uchinchi yili 18% va besh yildan keyin 20-40% ni tashkil qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, hozirgi vaqtida bu masala faqat tibbiyot muammosi bo‘libgina qolmay, balki ijtimoiy vazifalardan biriga aylanmoqda. So‘nggi yillarda ishemik BMQAB xavfi muammosi barchaning e’tiborini jalb qilmoqda, bu esa hozirgi paytda farmakologiya, klinik tekshiruvlar, kasallikning birlamchi va ikkilamchi profilaktikalari rivojlanganligiga qaramay rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlar ichida o‘lim va nogironlikning 1/2 qismi uchun asosiy sabab bo‘lib qolayotganligi bilan xarakterlanadi. Dunyo bo‘ylab bir yilda 6 mln. aholi bosh miya BMQAB kasalligi bilan xastalanadi. Bosh miya qon-tomir kasalliklarining kelib chiqish sabablarini o‘rganish natijasida bir qancha xavf omillari borligi aniqlandi.

Tadqiqotning maqsadi: Bosh miya qon aylanishining ishemik tipdag'i buzilishiga olib keluvchi xavf omillarini chuqur o‘rganish orqali davolash natijalarini yaxshilash.

Material va tekshirish usullari. Tadqiqot Xorazm viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining qon-tomir jarroxligi bo‘limida bosh miya qon aylanishi ishemik tipdag'i buzilishi tashxisi bilan davolangan 80 nafar bemor kasallik tarixi tekshirildi. Bemorlarning yoshi 44 yoshdan 75 yoshgacha. Tekshirish usullari: So‘rovnomal o‘tkazish, anamnez yig‘ish, Dopler (Uyqu arteriyasini), MRT va MCKT agniografiya, EKG, ExoKG, UTT qorin boshlig‘i a‘zolarini, rentgenografiya ko‘krak qafasini, umumiy qon tahlili, qon biokimiyoviy tahlili, koagulogramma (kon ivuvchanligi, ACHTV, trombin vaqt, PTI, MNO, trombotsitlar soni, fibrinogen) dinamikada.

Natijalar va ularning muxokamasi. BMQAB bilan kasallangan 80 nafar bemorlarda kasalxonada davolangan paytida BMQABga olib keladigan xavf omillari baholandi: ateroskleroz (65), yurak ishemik kasalligi (Y.I.K. 45), chekish va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish (31), jismoniy harakatsizlik (gipodinamiya) va ortiqcha vazn (tana massasi indeksi > 30), stress (21); qandli diabet (61), BMQABga olib keladigan havf omillari orasida spirtli ichimlik iste'mol qilish, stress va gipodinamiya boshqa omillarga nisbatan ko'pligi aniqlandi.

Xulosa: Demak yuqoridagi natijalrdan ko'rinish turibdiki birinchi navbatta aterosklerotik kasalliklari, QD kasallikki, Y.I.K. bor bemorlar, shuningdek tez-tez emotsiyal zo'riqish, kam harakatlik, chekish, tana vazni yuqori bo'lishi, arterial gipertenziya, yurak qon-tomir sistemasi kasalliklariga irsiy moyilligi bor bemorlar BMQAB kasalligiga chalinish ehtimolligi yuqori bo'lgan bemorlar hisoblanadi. Yuqorida aytilgan xavf omillari bor bemorlar BMQAB ga yo'l qo'ymaslik uchun yuqorida keltirilgan tekshiruvlardan har 6 oyda 1 martotaba o'tib turish tavsiya qilinadi.

Research Science and Innovation House